JURNALISTIKA TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARIGA KASBGA YO‘NALTIRILGAN INGLIZ TILINI O‘QITISH METODIKASINI OPTIMALLASHTIRISH YO‘LLARI

Giyasova Azizaxon Muratovna
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Mustaqil izlanuvchisi
E-mail:azizakhongiyasova@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.24337567

Annotatsiya

Jurnalistika ta’lim yo‘nalishi talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kasbiy ingliz tilini jurnalistika fanlari bilan bog‘lagan holda o‘qitish va ularning chet tilidagi jurnalistik qobiliyatlarini rivojlantirish bu borada muhim omil hisoblanadi. Xorijiy tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, “global media konvergensiyasi davrida jurnalistlardan ko‘p tilli muhitda ishlash talab qilinmoqda. Xalqaro OAV uchun ingliz tilida yangilik yozish, xorijiy manbalardan intervyu olish va media kontentni tarjima qilish kabi vazifalar nafaqat umumiy ingliz tilini bilishni, balki jurnalistik kontekstlarda ixtisoslashgan lingvistik kompetensiyani ham talab qiladi”. Ushbu ilmiy tezisda bo‘lajak jurnalistlarga kasbga yo‘naltirilgan ingliz tilini o‘qitishni optimallashtirishga xizmat qiluvchi zamonaviy metodikalar va yondoshuvlar haqida takliflar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: kasbga yo‘naltirilgan ingliz tili, jurnalistika ta’limi, ESP, autentik topshiriq, mezonli baholash, refleksiya.

Kirish

Jurnalistning ingliz tilidan foydalanishi faqat xorijiy matnni tushunish bilan chegaralanmaydi: kasbiy vazifa suhbatdoshga aniq savol berish, manbadan olingan axborotni tekshirish va auditoriyaga mos xabar yaratishni ham talab etadi. Tadqiqot davomida shunga amin bo‘ldikki, hozirga qadar jurnalistika yo‘nalishlarida kasbiy ingliz tili (ESP) doirasida CLIL, loyihaga asoslangan ta’lim (PBL), vazifaga asoslangan til o‘qitish (TBLT), janrga asoslangan yondashuv (genre-based approach) va aralash ta’lim (blended learning) kabi zamonaviy metod va yondashuvlardan foydalangan holda chet tilidagi kasbiy kompetensiyani bosqichma-bosqich shakllantirishga qaratilgan mashqlar tizimi qo‘llanilmagan. Shuningdek, bir dars davomida bir nechta pedagogik usuldan foydalanish mumkinligi e’tirof etilgan bo‘lsa-da, ularni o‘zaro bog‘liqlikda, uyg‘unlashtirib qo‘llash masalasi alohida tadqiq etilmagan .

Shu sababli mazkur tezisda o‘qitishni optimallashtirish til birliklarini ko‘proq yodlatish emas, balki cheklangan o‘quv vaqtida kasbiy vazifaga mos nutqiy harakatlarni tizimli mashq qildirish sifatida talqin etiladi.

Fikrimizcha, jurnalist talabalarning chet tilidagi kasbiy kompetensiyasini shakllantirish uchun kasbiy ingliz tilini jurnalistika fanlari bilan integratsiyalashgan holda zamonaviy metodlar orqali o‘qitish lozim. Yangi materialni semantizatsiya qilish, mustahkamlash va nazorat qilish bosqichlaridan iborat yaxlit tizimda talabalarga kasbiy ingliz tilini to‘liq o‘zlashtirish imkonini beruvchi ko‘nikmalar — yangilik yozish, intervyu olish, reportaj tayyorlash va efir nutqi (broadcast English) mashqlari orqali qo‘llash zarur, deb hisoblaymiz. Jurnalistika ta’limiga oid adabiyotlarda autentik kasbiy faoliyat va janr tahlilini til o‘qitish bilan bog‘lash taklif qilinadi. Biroq mazkur tezisning markaziy masalasi alohida usullar ro‘yxatini kengaytirish emas, balki topshiriq, til ko‘magi va baholashni bitta boshqariladigan siklga birlashtirishdir.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Tadqiqotning maqsadi — bo‘lajak jurnalistlar uchun kasbga yo‘naltirilgan ingliz tili mashg‘ulotlarining mazmuni, tashkil etilishi va baholashini uyg‘unlashtiruvchi metodik model ishlab chiqish.

Metodlar

Jurnalistika yo‘nalishidagi talabalar uchun moslashtirilgan mashqlar ular o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan kasbiy leksikani va kasbiy muloqotda ishlatiladigan grammatik tuzilmalarni aks ettirishi lozim. Bu borada quyidagi topshiriq formulalarini taklif qilish mumkin (1-rasm).

Topshiriq formulalari
1. Match the sentence beginnings with the correct endings.
2. Make sentences using the given words.
3. Match the words from columns A and B to make word combinations. Use the word combinations in the sentences given below. Make your own sentences with the new terms.

1-rasm. Grammatik tuzilmalarga oid topshiriq formulalari

Ushbu topshiriq formulalaridan xulosa qilish mumkinki, jurnalistika yo‘nalishi talabalarining kasbiy ingliz tilini o‘zlashtirishi va kasbiy kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan mashqlar majmuini yaratish va qo‘llash ularning chet tilida jurnalistika fanlarini kasbiy darajada o‘zlashtirish ko‘nikmalarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Ish nazariy-loyihaviy tadqiqot shaklida tuzildi

Loyihalash birligi sifatida “kasbiy vazifa — nutqiy harakat — til ko‘magi — mahsulot — qayta aloqa” zanjiri olindi. Masalan, intervyu tayyorlash vazifasi savol tuzish, aniqlashtirish, iqtibosni ajratish va mazmunni qisqartirish harakatlariga bo‘lindi. Har bir harakatga mos yordam vositalari: savol qoliplari, aniqlashtirish iboralari, manbaga nisbat berish shakllari va qisqa tahrir chek-listi taklif etildi.

Natijalar

Chet tilida talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga oid mashqlar tizimi L.T.Axmedova, J.J.Jalolov, M.A.Berdiyeva, M.X.Gulyamova, Ye.I.Passov, O.S.Prismatrova, J.Richards va T.Rodjers tadqiqotlarida yoritilgan.

Umuman, chet tillarni o‘qitish metodikasida mashqlar tizimi muammosi eng muhim masalalardan biridir. Turli tamoyil va yondashuvlarga asoslangan ko‘plab tasniflar mavjud bo‘lib, jurnalistika yo‘nalishi talabalariga kasbiy fanlar bilan integratsiyada tashkil etilgan quyidagi mashqlar tizimi ularning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda samarali hisoblanadi (2-rasm).

I-bosqich uchun (1-kurs)	II-bosqich uchun (2-kurs)
Model bosqichlari: kirish va mustahkamlash	Model bosqichlari: amaliyot va takomillashtirish
Retseptiv mashqlar: yangilik matnlarini skimming va scanning usulida o‘qish, sarlavhalarni yangilik bilan moslashtirish, brifing yozuvini tinglab asosiy faktlarni belgilash	Situativ-kommunikativ mashqlar: matbuot anjumani va intervyu simulyatsiyasi, tahririy yig‘ilish (editorial meeting) rol o‘yini
Reproduktiv (tayyorlov) mashqlar: jurnalistik kollokatsiyalar, nutqni ko‘chirish fe’llari (reporting verbs), sarlavha grammatikasi bo‘yicha til mashqlari	Ijodiy (produktiv) mashqlar: yangilik xabari, feature, op-ed yozish; bir voqeani ikki xil auditoriya uchun qayta yozish (mediatsiya)
Shartli-nutqiy mashqlar: namuna asosida lead yozish, berilgan faktlardan qisqa xabar tuzish, savollarni rasmiy registrga o‘tkazish	Integrativ topshiriqlar: faktcheking hisoboti, podkast epizodi, ingliz tilidagi o‘quv nashri uchun material tayyorlash (loyiha)

2-rasm. Jurnalistika yo‘nalishi talabalari uchun kasbiy ingliz tili mashqlari tizimi

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Metodlarni bir darsda uyg‘unlashtirish. Tadqiqotimizda ilgari surilgan asosiy g‘oya — CLIL, TBLT, PBL, janrga asoslangan yondashuv va aralash ta’limni alohida-alohida emas, bir mashg‘ulot doirasida o‘zaro bog‘liq holda qo‘llash.

Kasbga yo‘naltirilgan ingliz tilini o‘qitish metodikasini optimallashtirishning asosiy yo‘llari quyidagilardan iborat: (1) til mashqlarini jurnalistik kollokatsiyalar, sarlavha grammatikasi va atributsiya vositalari kabi kasbiy material asosida qurish; (2) mashqlarni retseptivdan produktivga va shakldan mazmunga qarab ikki bosqichli tizimga solish; (3) mashqlar bilan bir qatorda real jurnalistik mahsulotga olib keluvchi topshiriqlardan foydalanish; (4) CLIL, TBLT, PBL, janrga asoslangan yondashuv va aralash ta’limni bir mashg‘ulot doirasida uyg‘unlashtirish. Taklif etilgan mashq va topshiriqlar tizimining samaradorligi tajriba-sinov ishlari jarayonida tekshirildi.

Xulosa

Bo‘lajak jurnalistlarga kasbga yo‘naltirilgan ingliz tilini o‘qitishni optimallashtirish uchun **“IJEL-Indiciplinary Journalism English Learning”** (Fanlararo Jurnalistika va Ingliz tilini O‘rganish) modeli taklif etildi. Ushbu islohotlarning mantiqiy natijasi o‘laroq, tadqiqot ishimizda jurnalistika ta’lim yo‘nalishi talabalarini fanlararo bog‘liqlikda kasbga yo‘naltirilgan ingliz tiliga o‘qitish bo‘yicha kasbiy kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish uchun pedagogik metod ishlab chiqildi va uning samaradorligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Krashen S.D. Principles and Practice in Second Language Acquisition. – Oxford: Pergamon Press, 1982.
2. Horwitz E.K., Horwitz M.B., Cope J. Foreign language classroom anxiety // The Modern Language Journal. – 1986. – Vol. 70, № 2. – P. 125–132.
3. Selinker L. Interlanguage // International Review of Applied Linguistics in Language Teaching (IRAL). – 1972. – Vol. 10, № 3. – P. 209–231.
4. Swain M. Three functions of output in second language learning // Cook G., Seidlhofer B. (Eds.) Principle and Practice in Applied Linguistics. – Oxford: Oxford University Press, 1995. – P. 125–144.
5. Lyster R., Ranta L. Corrective feedback and learner uptake: Negotiation of form in communicative classrooms // Studies in Second Language Acquisition. – 1997. – Vol. 19, № 1. – P. 37–66.
6. Anderson R.C. The notion of schemata and the educational enterprise // Anderson R.C., Spiro R.J., Montague W.E. (Eds.) Schooling and the Acquisition of Knowledge. – Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum, 1977. – P. 415–431.
7. Nedosekova E.V. Formation of reading skills at English lessons in primary school in the context of the implementation of the Federal State Educational Standard // Actual issues of scientific research in the conditions of the formation of a multipolar world. – Ufa: AETERNA, 2023. – P. 108–109.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.